

MIRZO ABDULVOHID MUNZIM BUXOROLIK MA'RIFATPARVAR**Nizamova Iroda Kurbanovna**Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi Ark o'lkashunoslik muzeyi
xisob tectori bo'limi bosh mutaxassisi.<https://doi.org/10.5281/zenodo.19135782>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri Mirzo Abdulvohid Burxonov Munzimning hayoti, ma'rifatparvarlik faoliyati, adabiy ijodi va davlat arbobi sifatidagi xizmatlari yoritiladi. Unda Munzimning Buxoroda yangi usul maktabi ochishi, "Tarbiyai atfol" jamiyatidagi ishtiroki, "Buxoroi sharif" gazetasi faoliyatiga qo'shgan hissasi hamda jadidchilik g'oyalarini targ'ib etishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, uning 1917-yildan keyingi siyosiy faoliyati, "Yosh buxoroliklar" harakatidagi ishtiroki, BXSР davridagi maorif va sog'liqni saqlash sohalaridagi xizmatlari, talabalarning Germaniyada ta'lim olishini tashkil etishdagi sa'y-harakatlari ochib berilgan. Maqolada Munzimning Samarqand, Toshkent va Dushanbedagi ilmiy-publisistik faoliyati hamda uning merosini chuqur o'rganish zarurati alohida ta'kidlanadi. Muallif uni jadid maktabchiligi, matbuotchilik, milliy uyg'onish va kadrlar tayyorlash jarayonlarining faol ishtirokchisi sifatida baholab, Munzim shaxsining o'zbek va tojik madaniy tarixidagi ahamiyatini ham aniq ravishda ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Mirzo Abdulvohid Munzim, jadidchilik, Buxoro, yangi usul maktabi, "Tarbiyai atfol", "Buxoroi sharif", Yosh buxoroliklar, BXSР, ma'rifatparvarlik, Germaniyaga talabalar yuborish.

МИРЗО АБДУЛВАХИД МУНЗИМ, БУХАРСКИЙ ПРОСВЕТИТЕЛЬ

Аннотация. В данной статье освещаются жизнь, просветительская деятельность, литературное творчество и государственная служба одного из ведущих представителей бухарского джадидизма — Мирзо Абдулвохида Бурханова Мунзима.

Анализируются его заслуги в открытии новой методической школы в Бухаре, участие в обществе «Тарбия атфол», вклад в деятельность газеты «Бухорой шариф», а также его роль в распространении джадидских идей. Кроме того, рассматриваются его политическая деятельность после 1917 года, участие в движении «Младобухарцы», работа в сфере народного образования и здравоохранения в период БНСР, а также усилия по организации обучения студентов в Германии. Особо подчеркивается научно-публицистическая деятельность Мунзима в Самарканде, Ташкенте и Душанбе, а также необходимость глубокого изучения его наследия. Автор показывает значимость личности Мунзима в истории узбекской и таджикской культуры.

Ключевые слова: Мирзо Абдулвохид Мунзим, джадидизм, Бухара, новометодная школа, «Тарбия атфол», «Бухорой шариф», младобухарцы, БНСР, просветительство, обучение студентов в Германии.

MIRZO ABDULVAHID MUNZIM, A BUKHARA ENLIGHTENER

Abstract. This article examines the life, enlightenment activities, literary work, and public service of Mirzo Abdulvohid Burkhanov Munzim, one of the leading figures of the Jadid movement in Bukhara. It analyzes his role in opening a new-method school in Bukhara, his participation in the "Tarbiyai Atfol" society, his contribution to the newspaper "Buxoroi Sharif," and his efforts to promote Jadid ideas. The study also highlights his political activity after 1917, his involvement in the Young Bukharans movement, his service in the fields of public education and health care during the Bukhara People's Soviet Republic, and his contribution to

organizing students' education in Germany. Special attention is paid to Munzim's scholarly and journalistic work in Samarkand, Tashkent, and Dushanbe, as well as to the need for a deeper study of his legacy and historical significance.

Keywords: Mirzo Abdulvohid Munzim, Jadidism, Bukhara, new-method school, "Tarbiyai Atfol," "Buxoroi Sharif," Young Bukharans, Bukhara People's Soviet Republic, enlightenment, student education in Germany.

Kirish. XX asr boshlarida Buxoroda vujudga kelgan, o'z safida yetuk, ilg'or va talantli taraqqiyparvarlarni birlashtirgan Yosh buxoroliklar harakati tarixida, Buxorodagi jadidchilik harakatining taniqli namoyandalardan, yangi usul maktablari ochilishining birinchi tashabbuskorlaridan bo'lgan ma'rifatparvar adib Sadridin Ayniyning bosib o'tgan mashaqqatli hayot yo'li va o'rni kattadir. Uning "Tarixi amironi mang'itiyai Buxoro" ("Buxoro mang'it amirlari tarixi") va "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" kabi tarixiy asarlarida va ayrim ilmiy – publisistik maqolalarida Buxoro jadidlari tomonidan tashkil etilgan, o'z ichiga iste'dodli yoshlarni birlashtirgan Yosh buxoroliklar tashkilotining Buxoro maorifparvarlik va taraqqiyparvarlik tarixidagi o'rni, namoyandalari, uning siyosiy - ijtimoiy faoliyati to'g'risida muhim ma'lumotlarni keltirib o'tadi.

XIX asrning 90-yillaridan Abdulvohid Burhonov Munzim taxallusi bilan ma'rifiy she'rlar yoza boshlaydi, keyinchalik esa amaliy faoliyatida ham ma'rifatparvarlik bilan shug'ullanadi.

XX asrning birinchi o'n yilligida Munzim yangi usuldagi maktab ochish uchun harakat qila boshlaydi. Buxorodagi dastlabki jadid maktabining ochilishi ham uning nomi bilan bog'liq.

U 1908-yili Samarqandga borib, jadid maktablaridagi o'qitish uslubini Mahmudxo'ja Behbudiy va Abduqodir Shukuriydan o'rganadi va shu yili o'z hovlisida jadid maktabi, 1909-yilda esa katta yoshdagilar uchun kechki maktab tashkil etadi. Buxoroda 1909-yildan shakllangan jadidlar tashkiloti avval ma'rifatparvarlik ishlarini olib bordi. Munzim bu tashkilot ishiga faol qatnashib, shu yili Mukammil Burhonov, Sadridin Ayniy bilan birgalikda bilan "Tarbiyayi atfol" («Bolalar tarbiyasi») maxfiy jamiyatini tuzishda ishtirok etdi. Bu jamiyat buxorolik ma'rifatparvarlar va hur fikrli ziyolilar o'rtasida ilg'or demokratik g'oyalarni targ'ib etib, xalqning siyosiy ongini uyg'otishda katta ahamiyat kasb etdi [1. 52-56].

1917-yil fevral inqilobidan so'ng Buxoro jadidlari A.Burhonov boshliq eski jadidlarga, F.Xo'jaev va A.Fitrat boshliq yangi jadidlarga bo'linadi. Birinchi guruhning asosiy faoliyati ma'rifarparvarlik bo'lsa, ikkinchi guruh keng islohotlar tarafdori edi. Keyinchalik bu ikki guruhning birlashuvi natijasida "Yosh buxoroliklar" partiyasi tuzilib, Munzim unga rais etib saylanadi.

1918-yildan 1920-yilning sentyabrigacha Munzim Toshkentda yashaydi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgach, u avval Markaziy ijroiya qo'mitasi raisining o'rinbosari, keyinchalik Xalq maorifi noziri, Sog'liqni saqlash noziri lavozimlarida ishlaydi. Xalq maorifi noziri lavozimida ishlagan Munzim 1922-yil iyunida milliy kadrlar, xususan, muhandislar tayyorlash maqsadida bir guruh buxorolik yoshlarni Germaniyaga yuborish to'g'risidagi BXSР hukumati qarorining qabul qilinishiga katta hissa qo'shadi. Shu qarorga asosan, u mazkur ishni tashkil etish bo'yicha komissiya raisi etib tayinlangan edi. 1922-yilning yozida Munzimning shaxsan o'zi buxorolik 44 kishini Germaniyaga olib borib, Berlindagi o'quv yurtlariga joylashtiradi.

1920-yillarning o'rtalaridan boshlab Munzim o'zini tamoman ijodiy va publitsistik faoliyatga baxshida etadi. 30-y. boshida «Tojikistoni surx» gazetasida ishladi. Abdulvohid Munzim 1934-yilda uzoq davom etmagan kasallikdan so'ng Dushanbeda vafot etadi.

Adabiyotlar va uslubiyot tahlili. Mazkur maqolani yoritishda foydalanilgan adabiyotlar mazmunan bir-birini to'ldiruvchi bir necha guruhga mansubdir. Avvalo, ensiklopedik va umumlashtiruvchi manbalar muhim o'rin tutadi. Xususan, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasidagi ma'lumotlar Mirzo Abdulvohid Munzimning hayoti, faoliyati va tarixiy o'rnini qisqacha, ammo tizimli shaklda belgilashga xizmat qiladi. Bunday manbalar tadqiqotning umumiy faktologik asosini yaratadi. Ikkinchi guruhni ilmiy tadqiqotlar va dissertatsiya avtoreferatlari tashkil etadi. F.U. Temirov, D.M. Jamolova, L.P. Muhammadjonova va M.M. Alimova ishlari Buxoro jadidchilik harakati, jadidlar va qadimchilar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, shuningdek, Munzimning ushbu jarayonlardagi o'rnini tahlil qilishda muhim metodologik tayanch bo'lib xizmat qiladi. Ushbu adabiyotlar maqolaga ilmiylik, davriy izchillik va muammoga kengroq tarixiy kontekst baxsh etadi. Uchinchi guruhga matbuot va BXSР tarixiga oid maxsus tadqiqotlar kiradi. K. Rahmonovning BXSР matbuoti bo'yicha tadqiqoti Munzimning Germaniyaga talabalar yuborishdagi ishtiroki, Buxoro axborot makonidagi faoliyati va davlat arbobi sifatidagi xizmatlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Q. Rajabov va Sh. Xayitov ishlari esa Fayzulla Xo'jayev, o'zbek muhojirligi va jadidlar faoliyati bilan bog'liq jihatlarni yoritib, Munzim faoliyatini kengroq siyosiy muhitda baholash imkonini beradi.

Maqolada bir nechta tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Tarixiy-xronologik usul Munzim hayoti va faoliyatini bosqichma-bosqich yoritishda qo'llanilgan. Qiyosiy-tahliliy usul orqali jadidlar va qadimchilar qarashlari, shuningdek, Munzimning ma'rifiy va siyosiy faoliyati o'zaro solishtirilgan. Biografik usul yordamida Munzimning shaxsiy hayot yo'li, ijodi va davlat faoliyati bir butun tarixiy shaxs sifatida ochib berilgan. Manbashunoslik yondashuvi esa foydalanilgan adabiyotlarning ilmiy qiymati, mazmuni va mavzuga daxldorligini aniqlashga xizmat qilgan. Natijada maqola Munzim shaxsini Buxoro jadidchiligi, matbuot, ta'lim va davlat boshqaruvi bilan uzviy bog'liq holda yoritadi.

Tahlil va natijalar. Buxoro jadidchilik harakatining yuksalishida katta hissa qo'shgan va birinchilar qatorida yangi usuldagi maktabni ochgan Munzim - Abdulvohid Burhonzodadir.

Munzim 1877-yilda Buxoroda tug'ildi. U dastlabki ma'lumotni Buxoro madrasalarida oldi. Yoshligida otasidan yetim qolgan Abdulvohid o'sha davrning mashhur bibliofili Sharifjon Maxdum - Sadr Ziyo xonadonida tarbiya topdi. Bu xonadonda buxorolik ziyolilar tez-tez uchrashib, ilmiy bahs-munozaralar tashkil etar edilar. Ilmga chanqoq Munzim ana shu xonadonda Sadridin Ayniy bilan uchrashdi va bu uchrashuv ularni bir umrga do'stlashtirdi. Abdulvohid Samarqandga borib Mahmudxo'ja Behbudiy va Abduqodir Shakuriy tashkil qilgan yangi usul maktablarida o'qitish tajribasini o'rganib kelgach, 1908-yilning oktyabrida S.Ayniy bilan hamkorlikda o'z uyida yangi usuldagi maktabni ochdi [2, 269-270].

S.Ayniyning "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" kitobida ta'kidlashicha, bu maktab 1908-yilning 23-oktyabrida Buxoroning "Darvozai Sallohxona" guzaridagi Mirzo Abdulvohidning hovlisida ochilib, 12 bola o'qitiladi. Ularning bir qismi pullik, bir qismi esa tekinga o'qitiladi [3, 14]. Xuddi shunday maktab Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li tomonidan qo'shni guzarda ham ochilgan edi [4, 53].

Munzim o'z maktabi uchun S.Ayniy bilan birga o'quv qo'llanmalarni ham yaratdilar. Ma'lum jaholatparastlarning ig'volari va yangilikka qarshi chiqishlari natijasida 1909-yil 26-

sentyabrda Ostonaqul qushbegi, Baqoxo'ja qozikalon va Burhoniddin rais topshirig'i bilan Abdulvohid Munzim maktabi yopib qo'yiladi [5, 15].

Abdulvohid Burxonov 1908-yilda Mukammil Burxonov, Hamidxo'ja Mehriy, Sadridin Ayniy, Ahmadjon Abdusaidov va boshqalar bilan birga "Tarbiyai atfol" ("Bolalar tarbiyasi") nomida Buxoro jadidlarining ma'rifiy jamiyatini tuzdilar. Bu jamiyatda Usmon Xo'ja, Muso Saidjonovlar faol qatnashdilar. Jamiyat a'zolarining soni 100 dan oshib, uni moddiy jihatdan Muhiddin Mansurov va Sadr Ziyo qo'llab-quvvatlab turdilar. Bu tashkilot buxorolik yoshlarni xorijga yuborib o'qitish, yangi usul maktablari uchun darslik, qo'llanmalar yaratish, xorijdagi o'qishga yuborilgan bolalarga moddiy ko'mak berish ishlari bilan shug'ullandi. Shu jamiyat ko'magida 1908-yilda Istambulda 14 ta buxorolik va turkistonlik bola ta'lim oldi. Shu jamiyat ko'magida Turkiyada Abdurauf Fitratning bir qator asarlari chop etildi.

Bu jamiyat a'zolari, jumladan, Munzim ham buxorolik ma'rifatparvar va ziyolilar o'rtasida ilg'or demokratik g'oyalarni targ'ib etib, xalqning siyosiy ongini uyg'otishda muhim rol o'ynadilar.

Munzim Buxoroning birinchi matbuoti "Buxoroi sharif" gazetasi tashkil topishining tashabbuskorlaridan biridir. U "Munzim" taxallusi bilan fors-tojik tilida yozgan she'rlarini shu gazetada bosib chiqardi. Gazetaning 1912-yilda chop etilgan 53-sonida uning "Vatan", 59-sonida "To ba kay" ("Qachongacha"), "Maktab" she'rlari chop etilgan. Bu she'rlarda jadidchilik harakati oldiga qo'yilgan ma'rifatparvarlik, vatanparvarlik, bolalarimizning ilm o'rganishi, milliy o'zligini anglashi kabi g'oyalar o'z aksini topgan.

Munzim xattotlik san'ati bilan ham shug'ullangan va uni mukammal egallagan. S.Ayniyning maslahati bilan Ahmad Donishning asarlarini qo'lyozma variantlarini chiroyli xattotlik usulida yaratgan. Keyinroq esa o'z uyida tipografiya tashkil etib, "Qur'oni Karim"ni chop etgan va bu nusxa "Qur'oni Abdulvohidiy" hamda "Qur'oni Munzim" nomlari bilan mashhur bo'lgan.

Rossiyada 1917-yil fevral inqilobidan keyin va Buxoroda amir Olimxonning shu yili 7-apreldagi farmonidan so'ng Buxoro jadidlari Abdulvohid Burxonov Munzim boshchiligidagi eski-qadimchilarga va Fayzulla Xo'jayev hamda Abdurauf Fitrat boshchiligidagi yangi jadidlarga bo'linadilar. Birinchi guruhning asosiy faoliyati ma'rifat bo'lsa, ikkinchi guruh keng islohotlar tarafdori edilar. Bu guruhlar o'rtasidagi ixtilof ancha kuchaygan edi. Masalan, amirning 1917-yil 7-apreldagi farmonini "Yosh buxoroliklar" keng xalq ommasiga tushuntirish uchun miting, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazishni A.Fitrat boshchiligidagi guruh a'zolari yoqlab chiqadilar. Abdulvohid Burxonov boshchiligidagi guruh namoyishga qarshi chiqadi.

Keyinchalik bu ikki guruhning birlashuvi natijasida "Yosh buxoroliklar" partiyasi tuzilib, Munzim unga rais qilib tayinlanadi [6, 7, 48].

Buxoroda reaksiya va ta'qiblar kuchaygach, Munzim ham Toshkentga borib "Uchqun" va "Qutulish" gazetalariga hamkorlik qiladi. Uning qator she'rlari, jumladan, "Bayoni hol", "Ey mazlum Sharq" kabi she'rlari shu gazetalarining sahifalarida chop etiladi.

Buxoro Xalq Respublikasi tashkil topgach, Munzim BXSR MIK raisining o'rinbosari, Xalq maorifi vaziri, sog'liqni saqlash noziri vazifalarida faoliyat ko'rsatadi.

Fayzulla Xo'jayev boshchiligida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi kadrlarni chet elda o'qitishga katta e'tibor beradilar. Bir guruh o'quvchi va talabalarni Germaniya, Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlarga o'qishga yuborishga harakat qiladilar. Bu ishlarni amalga oshirishda Xalq maorifi noziri sifatida Munzim ham katta hissa qo'shadi.

1917 yil fevral inqilobidan so'ng Buxoro jadidlari A.Burxonov boshliq eski jadidlarga, F.Xo'jayev va A.Fitrat boshliq yangi jadidlarga bo'linadi. Birinchi guruhning asosiy faoliyati ma'rifatparvarlik bo'lsa, ikkinchi guruh keng islohotlar tarafdori edi. Keyinchalik bu ikki guruhning birlashuvi natijasida «Yosh buxoroliklar» partiyasi tuzilib, Munzim unga rais etib saylanadi.

Yangi ziyolilarning qarashlarida eng avvalo, aholining barcha ijtimoiy qatlamlari orasida hukm surgan savodsizlikni tugatish, eski ta'lim tizimini isloh qilish, qoloq, eski va behuda odatlarga chek qo'yish singari maqsadlar ilgari surildi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra ular, ayniqsa diniy mutaassiblik, behuda sarf-harajatlarga olib keluvchi an'anaviy odatlarga tanqidiy yondashgan. Agar bunday qarashlar debochasini Ahmad Donish kabi ma'rifatparvarlar boshlab bergan bo'lsa, ularning g'oya va qarashlarini Sadridin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Mirkomil Burxonov, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Xolidxoji Mehri, Mulla Vafo, Abdurauf Fitrat rivojlantirdi.

1918 yildan 1920 yilning sentyabrigacha Munzim Toshkentda yashaydi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgach, u avval Markaziy ijroiya qo'mitasi raisining o'rinbosari, keyinchalik Xalq maorifi noziri, Sog'liqni saqlash noziri lavozimlarida ishlaydi. Xalq maorifi noziri lavozimida ishlagan Munzim 1922 yil iyunida milliy kadrlar, xususan, muhandislar tayyorlash maqsadida bir guruh buxorolik yoshlarni Germaniyaga yuborish to'g'risidagi BXSР hukumati qarorining qabul qilinishiga katta hissa qo'shadi. Shu qarorga asosan, u mazkur ishni tashkil etish bo'yicha komissiya raisi etib tayinlangan edi. 1922 yilning yozida Munzimning shaxsan o'zi buxorolik 44 kishini Germaniyaga olib borib, Berlindagi o'quv yurtlariga joylashtiradi. 1920 yillarning o'rtalaridan boshlab Munzim o'zini tamoman ijodiy va publisistik faoliyatga baxshida etadi. 30-y. boshida «Tojikistoni surx» gazetasida ishladi [8, 78-83].

“Germaniyaga o'quvchi va talabalarni yuborish ishi - deb yozadi tarix fanlari nomzodi, dotsent, BXSРning tadqiqotchilaridan biri Kamol Rahmonov, - BXSРning Moskvadagi vakolatxonasi boshlig'i Ato Xo'janing faol ishtiroki hamda Germaniyadagi Vinsdarf shaharchasi musulmonlar machiti imomi, tatar millati vakili olimjon Idrisiy, hukumat rahbarlaridan Fayzulla Xo'jayev, Qori Yo'ldosh Po'latov, Abdulvohid Burxonov, Abdurauf Fitrat tashabbuslari bilan amalga oshirildi [9, 123-124].”

“Buxoro axbori” gazetasining 1922-yil 27-avgustdagi 97-sonida “Germaniyaga talaba ketadur” maqolasida buxorolik 46 talabani Olimjon Idrisiy, Abdulvohid Burxonov va Kamenskiylardan iborat maxsus komissiya olib borishi haqida xabar berilgan. Buxorolik talabalarining Germaniyada ta'lim olishida Munzim bosh-qosh bo'lib turgan. U o'zi bilan ikki o'g'lini ham olib borib Germaniyada o'qitgan.

Fayzulla Xo'jayev bu talabalar hayotidan xabar olish maqsadida Germaniyaga borganligi haqidagi ma'lumotlar ham mavjud. Germaniyada tahsil olib qaytgan talabalarining asosiy qismi O'zbekistonga qaytgach, “nemis ayg'oqchisi”, “Vatan xoini”, “imperializm malayi” kabi soxta ayblar bilan qatag'on qilingan. Bir qismi esa Sibir, Magadan, Vorkutaga surgun qilingan, ko'pchiligi GULAG lagerlarida halok bo'lgan. Bulardan 15-16 tasi Turkiyaga muhojirlikka ketib, jon saqlab qolganlar [10, 11, 18, 54-55].

Abdulvohid Burxonov Germaniyadan qaytgach, Samarqandda nashriyot xodimi bo'lib ishlaydi. Ilmiy va publisistik faoliyat bilan shug'ullanadi. 1927-yildan boshlab Dushanbeda yashab, “Tojikistoni surx” gazetasida badiiy xodim sifatida faoliyat ko'rsatadi. 1934-yil 5-martda Dushanbeda vafot etadi. Abdulvohid Burxonov Munzim shoir, jurnalist, davlat arbobi sifatida Buxoro, Samarqand va Tojikistonda katta faoliyat ko'rsatgan insonlardan biridir.

Afsuski, bugungi kungacha O‘zbekiston va Tojikistonda uning faoliyati har tomonlama va chuqur o‘rganilmagan.

Abdulvohid Munzim 1934-yilda uzoq davom etmagan kasallikdan so‘ng Dushanbeda vafot etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Mirzo Abdulvohid Burhonov Buxoro jadidchilik harakatining eng muhim namoyandalaridan biri sifatida nafaqat ma‘rifatparvar, balki shoir, jurnalist, tashkilotchi va davlat arbobi sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirgan. Uning faoliyati Buxoroda yangi usuldagi maktablar tashkil etish, ma‘rifiy jamiyatlar tuzish, yoshlarni xorijda o‘qitish, milliy matbuotni rivojlantirish va xalqning siyosiy ongini uyg‘otish kabi yo‘nalishlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, Munzimning jadid maktabchiligi sohasidagi tashabbuslari Buxoro ijtimoiy-madaniy hayotida yangi davrni boshlab berdi.

Maqolada keltirilgan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Munzim faoliyati faqat maorif bilan cheklanib qolmagan. U “Tarbiyai atfol” jamiyati orqali yosh avlodni tarbiyalash, darslik va qo‘llanmalar yaratish, chet el ta‘limini yo‘lga qo‘yish kabi masalalarda ham amaliy tashabbus ko‘rsatgan. Uning “Buxoroi sharif”, “Uchqun”, “Qutulish” kabi gazetalardagi faoliyati esa jadidchilik g‘oyalarining matbuot orqali ommalashishida muhim rol o‘ynaganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, BXSR davrida maorif va sog‘liqni saqlash tizimlaridagi faoliyati Munzimning davlat boshqaruvi darajasidagi xizmatlarini ham ochib beradi.

Shuningdek, Munzimning hayoti Buxoro jadidlarining murakkab taqdirini ham aks ettiradi. U eski va yangi jadidlar o‘rtasidagi ixtiloflar, siyosiy bosimlar, ta‘qiblar, muhojirlik va keyingi davr murakkabliklarini boshdan kechirgan tarixiy shaxsdir. Bu jihat uning faoliyatini yanada muhim va serqatlam qiladi.

Demak, Munzim shaxsiyati Buxoro jadidchiligi tarixini, milliy uyg‘onish jarayonlarini va ma‘rifatparvarlik harakatining amaliy natijalarini o‘rganishda alohida ilmiy ahamiyatga ega. Shu bois uning hayoti, ijodi va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini yanada chuqurroq tadqiq etish, asarlarini izlab topish va ilmiy muomalaga kiritish bugungi tarixshunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Bugun tadqiqotchilar oldida turgan asosiy vazifa Munzimning hayoti, faoliyati va ijodini chuqur tadqiq etib, uning asarlarini topib nashr ettirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Beshimov, M. Abdulvahid Munzim - enlightened poet, state and public figure. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), (2022), 52-56.
2. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-жилд. Т.: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. –Б.269-270.
3. Темиров Ф.У. Садриддин Айнийнинг Бухородаги жадиличлик ҳаракатида тутган ўрни ва ижтимоий фаолияти. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. –Т. 2020. -Б.14.
4. Фиш Р., Хашим Р. Глазами совести. Душанбе: “Ирфон”, 1978. -С.53
5. Жамолова Д.М. Бухоро амирлигида жадиждлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири- XX аср бошлари), Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати.Т. -2019. – Б.15.
6. Мухаммаджонова Л.П., Алимова М.М. Бухорода жадиличлик ҳаракати тарихидан. Бухоро: “Дурдона”, 2019.-Б.48;

7. Жамолова Д.М. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири- XX аср бошлари), Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. Т.-2019. – Б.19.
8. Beshimov, M. Amir Said Alimkhan and Young Bukhara residents. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(2), (2022). -В.78-83.
9. Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йиллар). Т.: “ABU MATBUOT - KONSALT”, 2012. – Б.123-124.
10. Ражабов Қ, Файзулла Хўжаев (Тарихий эссе). Т.: “ABU MATBUOT - KONSALT”, 2011. – Б.18;
11. Хайитов Ш. Ўзбек мухожирлиги тарихи. Т.: “ABU MATBUOT - KONSALT”, 2008. – Б.54-55.